



COMPARATIVE ANALYSIS OF THE STORIES OF BINT AL-SHATI AND SAIDA ZUNNUNOVA

Muhlisa Ziyavuddinova

*Associate Professor, Doctor of Philological Sciences,
Tashkent State University of Oriental Studies,
(Tashkent, Uzbekistan)*

Abstract: This article is devoted to the work of the famous Uzbek writer Saida Zunnunova and the Saudi writer bint ash-Shati. The article provided a comparative analysis of their stories.

Key words: political, social, economic, cultural relations, Orientalist - Arabists, Kuttab, Al - Akhrom newspaper

BINT ASH – SHOTI VA SAIDA ZUNNUNOVA HIKOYALARINING QIYOSIY TAHLILI

Muhlisa Ziyavuddinova
*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi,
(Toshkent, O'zbekiston)*

Annotatsiya: Ushbu maqola taniqli o'zbek yozuvchisi Saida Zunnunova va Saudiya yozuvchisi Bint ash-Shoti ijodiga bag'ishlangan. Maqolada ularning hikoyalari qiyosiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar, sharqshunos- arabshunoslari, Kuttab, Al - Axrom" gazetasi

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, dunyoning turli mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar

o'rnatdi. Madaniy aloqalarni o'rnatishda mamlakatlarning tarixi, madaniyati, milliy merosi va qadriyatlar muhim o'rinni tutadi. Shu bois arab mamlakatlarining boy milliy merosi, urf odatlari, tarixi, madaniyati va adabiyoti hamda bu sohalar rivojiga o'z hissasini qo'shgan olimu-fozillar, shoir va yozuvchilarining hayoti va ijodi bilan tanishish – sharqshunos - arabshunoslar oldidagi muhim vazifalardandir.

Arab adabiyoti, xususan Misr adabiyoti rivojiga barakali hissa qo'shgan ko'pgina shoir va yozuvchilar hayoti va ijodi arabshunoslарimiz tomonidan ilmiy istifodaga kiritilgan. Biroq o'z asarlari orqali ko'plab muxlislar orttirgan, bir biridan ajoyib hikoyalari va ilmiy asarlar yozgan, Bint ash – Shoti tahallusi bilan elga tanilgan adiba Oysha Abdurahmon ijodi ba'zi sabablarga kura o'rganilmagan.

Arab olamida «XX asr mashhur ayoli» nomini olgan, Misrlik adiba, olima, shoira, journalist Oysha Abdurahmon 1913 yili Nil daryosi sohilidagi Dimyon shahrida tavallud topgan. Uning otasi mashhur “Al – Azzar universiteti shayhlaridan biri, onasi esa, Dimyon shahri nufuzli va taniqli oila farzandi edi.

Oysha 6 yoshdan boshlang'ich diniy maktab «Kuttab» ga boradi. U o'zining o'tkir zehni, kuchli hotirasi va tirishqoqligi tufayli Quron Karimni qisqa vaqt ichida otasi yordamida yod oladi. So'ngra otasining o'zi unga arab tili sarfi-nahvi, tafsir, xadis va fiqhiy ilmlardan dars beradi. Endi Oysha to'liq o'rta maktablarning tezkor imtihonlaridan imtiyoz bilan o'tib, al - Mansurdagi boshlang'ich maktabda muallima bo'lib ishlay boshlaydi. 1939 yili Qohira Universiteti adabiyot fakulteti to'liq kursi uchun tezkor imtihonlar topshirib, imtiyozli diplom oladi. Shu yildan boslab Qohira universitetida arab adabiyotidan dars bera boshlaydi. 1941 yili adabiyot magistri unvoniga sazovor bo'ladi. U ingliz va fransuz tillarini mukammal o'rganadi.

1950 yilda o'rta asr arab faylasuf shoiri va mutafakkiri Abu-l-Ala al-Maarriyning «Risolatu-l-g'ufron» («Kechirimlilik risolasi») asari bo'yicha o'zining doktorlik dissertatsiyasini yoqlaydi. Qohira universitetida adabiyot fanidan dars berish bilan birga Ayn – Shams universiteti qoshidagi qizlar kollejida filologiya fakulteti dekani lavozimida ishlaydi.

Professor Labib Rizq u haqida: «Kuproq Bint ash – Shoti tahallusi bilan tanilgan Oysha Abdurahmon dunyoga o'z romanlari, sherlari bilan tanilishi mumkin edi, lekin u “Al - Ahrom” gazetasida nashr etililgan hikoyalari orqali butun Misrni, uning halqini o'ziga maftun etishni afzal ko'rdi... - degan ekan. Adiba ushbu tahallusni Nil daryosining sohilida tugilib, voyaga yetganligi uchun tanlagan. Uning hayotida Nil daryosi

alohida o’rin tutadi, chunki hayotining eng go’zal, beg’ubor bolalik onlari aynan shu yerda kechgan.

1935 yilning yozidan boshlab o’zining ustozi va turmush o’rtogi bo’lmish filolog va tarixshunos olim Amin al-Xuliy (1896-1966) tomonidan asos solingan “Al-Ahrom” gazetasida o’zining qator maqola va ocherklari bilan chiqa boshlaydi. U journalist sifatida Misrning chekka qishloqlarida joylashgan ayollar mакtabidagi ta’limni o‘quv ishlarini tekshirish uchun safarlarga borib turar, bu esa unga oddiy halq bilan, ayniqsa qishloq aholisi bilan yaqindan tanishishga imkon berdi va uning adabiy faoliyatiga chuqur tasir kursatdi.

Otasi uning nashriyotda faoliyat olib borishiga qarshi bo’lgan. Shu bois u onasi maslahatiga ko’ra oziga qadrdon bolgan sohilga atab Sohil qizi (“Bint Ash-Shoti”) tahallusini olgan. Misr ayollari va dexqonlarining og’ir mehnati, turmushi haqidagi maqolalari keyinchalik to’plam ko’rinishda - «Misr qishlogi», «Dexqonlar muamosi», «Biz qachon uyg’onamiz?», «Ayollar hayotidan lavhalar» va «Izohlar» nashrdan chiqtı.

Bint ash-Shoti arab dunyosida adiba, tarixshunos, tilshunos, adabiyotshunos olima xamda qadimgi va o’rta asr adabiyotining tadqiqotchisi sifatida tanilgan. Quyida uning asarlari haqida to’htalamiz.

Ilmiy tadqiqotlari: O’rta asr mutafakkiri va faylasuf shoiri Abu-l-Ala al-Maarriyning (973-1057) hayoti va ijodi xamda uning “Kechirimlilik haqida risola” (“Risatu-l-g`ufron”) borasida 1944 yilda olib borgan tadqiqoti. Ushbu ilmiy ishi uchun Bint ash-Shoti 1949 yilda Qoxiradagi Arab tili Akademiyasining mukofotiga sazovor bo`ldi.

“Abu-l-Ala asarlarda inson hayotining yoritilishi (Al-hayat al-insaniyya inda Abu-l-Ala)”, Quroni Karim tafsiri (1962); Ibn Sidaning arabcha lug’atiga sharq (1962); “Zamonaviy arab shoiralari”.

Islom tarixiga bag’ishlangan asarlari: “Payg`ambarning onalari”, “Payg`ambarning qizlari”, “Payg`ambarning ayollari”, “Sayyida Zaynab – Karbalo qaxramoni”, “Sakina Xusayn qizi”

O’rta asr arab adabiyoti vakillari haqida: Abu-l-Ala al-Maarriy (1965), Al-Xansa, Robiya al-Adaviya, Yo’l hotiralari, “Mujizakor zamin” (Ard al-mujizot).

Qissalari: “Xatoga yol quygan ayol”, Fi’ravnning qaytishi; hikoyalar to’plami: “Soxil siri”, “Qishloq xikoyalari”, “Ayollar hayotidan lavxalar”; sheriy to’plami «Ko’prik ustida».

Bint ash-Shoti o’z asarlari bilan inson qalbi va ongiga ta’sir eta oladigan moxir yozuvchidir. U ko’p ijod qildi va katta shuxrat qozondi

xamda arab adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shdi. Bu yozuvchinig barcha asarlarida haqqoyniylik haqiqatgo'ylik barq urub turadi. U kundalik hayotimizda uchraydigan voqeya-hodisalarni tasvirlaydi, haqiqatni yuzaga chiqarib, yolg'onlarni fosh etishni o'zining vazifasi deb biladi.

Bint ash-Shoti iste'dodli olma, mohir yozuvchidir. U 1989 yili Qohirada vafot etdi.

O'zbek shoirasi va adibasi Saida Zunnunova 1926 yili Andijon shahrida xizmatchi oilasida tavallud topdi. 1943 yili Andijondagi o'qituvchilar institutini 1953 yilda O'rta Osiyo Davlat universitetini (hozirgi -Milliy universitet) tugatgan.

1953-56 yillarda «Gulxan» jurnalida faoliyat olib bordi. 1956-57 yillarda «O'zbekiston madaniyati gazetasi» da ishladi. 1957-58 yillarda esa O'zbekiston badiiy adabiyoti nashriyotida, 1962-67 yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi lavozimida faoliyat yuritgan.

Uning «Qizingiz yozdi» (1948), «Yangi she'r» (1950), «Gullar vodiysi» (1954) nomli she'riy to'plamlari o'quvchilar qo'liga yetib borgan. 1956 yilda «Gulbahor» 1975 yilda «Go'dak hidi» hikoyalar to'plami nashr etilgan.

«Gulhan» (1957), «Yangi director» (158), «Olov», «Odamlar orasida» (1964) nomli qissalarida xotin-qizlar ozodligi uchun kurash, yosh avlodni tarbiyalash, urush yillarida front orqasida ayollarning ko'rsatgan jasorati tasvirlangan. «Qanot» (19610), «Ko'chalar charog'on» (1965), «Qizposhsha» nomli hokoyalar to'plamida samimi sevgi-muhabbat tarannum etilgan. «Qizlarjon» (1962), «Qo'shnilarim» (1970), «Nilufar» nomli she'riy to'plamlarida esa, insonlar ortasidagi samimi munosabatlar, zamona madhi kuylangan. Shoiraning «Alla» (1972) poemasi o'z onalarining fanzandlariga muhabbat va turmushdagi jasoratiga bag'ishlangan.

«Ona» (1964-1965), «Qizlar» nomli p'esalari zamona qahramonlariga bag'ishlangan bo'lib, respublika teatr sahnalarida qo'yilgan.

Saida Zunnunova hamma vaqt mehnat qilgan insonlarning xususan ayollarning mehnatsavarligi, kamtarligi, sabr-bardoshi, oila va jamayatdagi o'rnini o'z asarlarida ko'rsatib bera olgan.

1950 yilda Saida Zunnunova va Said Ahmadning to'ylari bo'lib o'tdi. Shu yili Said Ahmadni «millatchi», «halq dushmani» deb kurakda turmaydigan tuhmatlar bilan qorallab surgun qilishdi.

Saidaning bo'yniga Saidnikidan kam bo'limgan og'ir, mushkul ishlar tushdi. Uni yozuvchilar uyushmasi kotibiyatiga chaqirib, «Xalq dushmani» - Saiddan voz kechishini talab qildilar. O'shqirdilar, do'q - po'pisalar qildilar. O'rtaga olib qistadilar. Voz kechmadi. Uning degani, tanlagani, taqdirini qo'shgani Said bo'lgani uchun ham u hech qachon voz kechmasligini aytdi. Uni ishdan bo'shatdilar.

Saida o'sha tunlari oqarmas yillar Saidni kutdi. Taziyyqlar, ta'qiblar xo'rashlarning hammasiga chidadi va kutdi. U Saidning haqligi, begunohligiga va o'zining ham haqligi va to'g'ri ekanligiga ishonardi. Bu ishnoch Saidaning noyob xarakteriga qo'shilib, alohida poetik olamga, hikoyalar dunyosiga yetakladi.

Garchand, Misr adibasi 1913 yilda tug'ilib, XX asr oxirlarida vafot etgan, Saida Zunnunova esa 1926 yilda tug'ilib 50 yil umr kechirgan bo'lsa-da, ular bir davrda ijod qilishgan. Ijodlarining gullagan davri XX asrning 50-70 yillariga to'g'ri keladi.

Bint - ash Shoti avvaliga otasining taziqi ostida o'qishga qiyngalgan bo'lsa, Saida opa keyinchalik, turmush qurgandan so'ng, atrofdagilar uni "halq dushmanining xotini" deb taziq o'tkazganlaridan o'g'ir kunlarni boshidan kechirdi. Lekin har ikki adiba ham mustahkam iroda, sobit qadam, o'z xalqining vatanparvar, pok vijdonli qizi, halq ma'naviy me'rosining haqiqiy merosxo'rlari ekanliklarini, har qanday to'siqni bosib o'tishga qodir ekanliklarini isbot qildilar. Shu jihatdan mazkur adibalarning hayoti va ijodini o'rganish, asarlarini tahlil etish, ular haqidagi fikr-mulohazalarimizni bildirish – arabshunoslar oldidagi muhim vazifalardandir.

Bint ash-Shoti o'zining "Sohil qo'shig'i" (اغنية الشاطي) nomli hikoyasida chinakam sevgi va mehr-muhabbat haqida hikoya qiladi. Asarda sohil qo'shig'i sevgi va sadoqat ramzi siftida ko'rsatilgan. Alloh tomonidan insonga ato etilgan vafo, sadoqat va muhabbat kabi tuyg'ular uning qalbi tubiga jo bo'lib qoladi.

Hikoyada yozilishicha, voqeа bir ayolning dengizdagи sayohati vaqtida sodir bo'ladi. U bo'lib o'tgan to'fondan so'ng kemada qandaydir bir mayus va shu bilan birga dilga orom beruvchi bir kuyni eshitadi. Qo'shiqni eshitgan zahotiyoy xayratga tushadi, chunki bu qo'shiqni bir vaqtlar onasidan eshitgan edi. Xatto bu kuyni onasidan boshqa hech kim bilmas edi. Adiba sayohatni ayolning o'sha ongdagi xotiralarini quydagicha tasvirlaydi:

انها لم تسمعها قط من فم احد قبل اليوم، غير أنها الغالية. وقد رحلت امها الرحلة التي لا يُؤوب منها مسافر. وغاب صوتها الحبيب في ذيته العدم. ولم يبق منه الا صدى خافق رفيق يملأ قلب ابنتها سحو او شجنا.

فأى سر خفي قد نقل أغنية الراحلة الى ملاح شريد لا يطمئن به على الأرض مكان؟

“U bu qo’shiqni shu kungacha mehribon onasidan o‘zga hech kimdan eshitmagan edi”. Onasi dorun baqoga ravona bo‘lgach esa, uning mayus va qayg‘uli ovozi go‘yo adam sahrosiga singib ketganday edi. Onasi kuylagan qo’shiqning mungli sadosi qizning g‘am-g‘ussaga to‘la qalbida saqlanib qolgan edi. Bu qanday mahfiy sirkı, marxuma onasining qo’shig‘ini tinim bilmas bu dengiz quchog‘igacha yetkazgan? Nahotki bu dengizchi mening onamni tanisa? Ehtimol, bu qo’shiqni onamdan boshqa biladiganlar ham bordir, kabi turlii savollar ayol xayolini band etgan edi. Biroq ayol bu qo’shiqni oddiy bir dengizchi kim ekanligini bilish ishtiyoqi paydo bo‘ldi. Qo’shiq esa dengiz haqida edi:

يا مجلس الانس، من بعد ناز ارك
و مين يا موج وقف، عالشط ير عا لاك
و مين يا نحم المسا، سهر يغني لاك
غدر الرمان بنا، والريح عصف بينا
مرق قلو عنا وحطم كل مركبن

*“Ey Oqshom, bizdan so ‘ng seni kim yo ‘qlar
Ey tinim bilmas to ‘lqin, kim seni
Sohil bo ‘yida tomosha qilar,
Ey tungi yulduz, kim senga qo ‘shiq aytar
Zamon bizni aldadi, shamol o ‘rtamizda mavj urdi
Yelkalarimizni buzib, kemamizni tebratdi”*

Bu vaqtida dengizchi o‘z kuyiga shu qadar berilib ketgan ediki, xatto ayolning yaqinlashganini ham sezmadni. Ayol esa, kema bortiga suyangancha qo’shiqni tinglar va o‘z-o‘ziga tinmay savol berardi. Ayol sekin – asta dengizchiga yaqinlashdi-yu, biroq savol bermay ortga qaytdi.

Sahar tongda yana dengizchining yoniga borib u bilan salomlashdi. Dengiz o‘z hayatini hikoya qilar ekan, ayol o‘z savollariga javob topa boshladi.

Dengizchi bir vaqtlar o‘z amakisining qizini sevib qolgan ekan, biroq o‘sha vaqtdagi urf-odatlarga ko‘ra, ikki qalb bir-birining visoliga yeta olmagan. Qiz boshqa yigitga uzatilgan. Yigit esa, qizning turmush o‘rtog‘ini o‘ldirish niyatida jinoyatga qo‘l uradi. U yo qamoqqa o‘tirishi, yo shaharni butunlay tark etishi lozim edi. U ikkinchi yo‘lni tanlab, ham savgisidan, ham ona yurtidan ayrıldi. Oradan yillar o‘tib, unga murojaat

qilgan ayol dengizchining yoshlik chog‘larini esga soladi. Chunki u onasiga juda o‘xshar edi.

Adiba ushbu hikoyasi orqali o‘z sevgisiga sodiq, qolgan dengizchi, yillar o‘tsa ham u o‘z sevgisidan voz kechmagani haqida uning qalbi so‘zlaydi. Asarda dengizdagi tufon vaqtitudagi yo‘lovchilar xolati, ularning bir-birlariga suyanganliklari tufayli o‘zlaridagi qo‘rquvni yenganliklarini ko‘rsatib berilgan.

Saida Zunnunovaning “Go‘dak hidi” to‘plamidan joy olgan “Vafo” hikoyasi qahramoni ham qaysidir ma’noda Bint ash-Shotining “Sohil qo‘shig‘i” hikoyasidagi dengizchini eslatadi. Adiba S. Zunnunova o‘zi hikoya qiladi: “Men bu odamni har yakshanba uchratardim. Ertalab magazinga sutga chiqib ketayotganimda u qarshimdan kelardi. U qo‘llarini orqasiga qilgancha ohista o‘tib borar, atrofga qaramas, garchi yerga qarab ketayotgan bo‘lsa ham, uning ko‘zlaridagi chuqur qayg‘uni sezish mumkin edi”. U qabriston tomon borardi. U xotinini yaxshi ko‘rib uylangan ekan. Bir-birlarini nihoyatda hurmat qilishar, juda ahil yashashgan. Yosh kelinchak to‘ng‘ich farzandini dunyoga keltirib, o‘zi olamdan o‘tgan. Bu odam chaqalojni hech kimga bermasdan sut tashib, o‘zi katta qilgan ekan.

Yilning to‘rt faslida har kuni u suyuklisi qabrini ziyorat qilar, u yerni supurib-sidirar, u yerga ekib qo‘ygan rayxon va gullarini parvarish qilardi.

U yoshlikdagi sadoqat, vafo kabi beg‘ubor hislariga sodiq qoldi. Vafotiga qadar hamma vaqt umr yo‘ldoshi qabrini ziyorat qilib, tilovat qildi. Uning vafotidan so‘ng qabr xuvillab qolmadi, endi ota-onalari qabriga o‘g‘illari borib, eslab ziyorat qila boshladilar.

Yuqorida ikk hikoya biri Misr adibasi ikkinchisi o‘zbek adibasi qalamiga mansubdir. Mazkur hikoyalarda erkak kishining o‘z sevgilisiga sadoqati ko‘rsatib o‘tilgan. U paytlarda u qirq-qirq besh yoshlardagi qomati kelishgan, soch – soqoli qop-qora, yelkalari keng, juda chiroyli kishi edi. Endi esa soch -soqoli oqargan qariya. U o‘tayotganda sho‘xlik qilayotgan bolalar ham jim bo‘lib qolishadi. Kattalar gaplarini to‘xtatishadi.

Endi uning yelkalari chiqqan, lekin chehrasida kamdan-kam keksalarda bo‘ladigan nuroniylit, xazinlik bilan poklik aralashgan g‘alati bir go‘zal mayinlik barg urib turadi.

Bu odamning dostoni Farxod bilan Shirindan ortiqroq. U yoshlikning beg‘ubor hislariga sodiq qoldi.

Oxirgi marta uchratganimda - u oyog‘ida maxsi kalish, egnida ozoda jomakor. Ranggi siniqqanroq, qaddi yana ham engashganroq edi, - deb yozadi adiba.

Bint ash-Shoti “Yolg‘on qurboni” nomli hikoyasida Asma ismli qaz haqida hikoya qiladi. U qadrdon otasidan judo bo‘ladi. Asmaning qismati esa, otasining vafotiga bog‘liq bo‘lib qoladi, chunki otasining vafotidan so‘ng uning boshiga ketma-ket kufatlar yog‘iladi.

Asma qorachadan kelgan bo‘lsa-da nozik yuz tuzilishi, kelishgan qomati, surma surilgandek qop-qora ko‘z-qoshlari-yu g‘unchadek qirmizi lablari uni jozibador qilib ko‘rsatardi. Uning boy va nufuzli oiladan ekanligi yurish-turishidan yaqqol sezilib turardi.

Uning otasi yuqori lavozimni egallab, katta bir idoraga rahbarlik qilar edi. Otasini puldan bo‘lak hech narsa qiziqtirmas edi.

To‘satdan otasi vafot etadi. Ayoli va qizini noiloj axvolga solib ketadi. Otasi na yosh qizchasiga, na beva xotiniga biron narsa qoldirmaydi. Faqatgina oilaviy an'anaga ko‘ra o‘limidan so‘ng xotininining o‘z akasiga turmushga chiqishini vasiyat qilib ketgan.

Ona – bola hech qanday chora topolmay, vasiyatga ko‘nishga majbur bo‘ldilar. Biroq keyinchalik ularning hayotlari do‘zaxga aylangan edi. Asmaning onasi kundan-kunga so‘lib borardi. Uning tinimsiz mehnat va xo‘rlashlardan hech kim ozod eta olmas, hech kim rahm qilmasdi ham. Ular Asma bilan onasining ham merosga huquqlari borligidan xabar topgach, ne-ne kunlarni bechora ayol boshiga solmadilar. Oxir oqibat bunday qiynoqlarga chida olmagan ayol bu dunyoni azob ichida tark etdi. Onasining vafotidan so‘ng Asma bu oilaga b'o‘lgan butun nafrati va g‘azabiga qaramasdan o‘z hislarini berkitishga, sir boy bermaslikka harakat qilardi, chunki uning boshqa boradigan joyi yo‘q edi. Biroq amakisining erka, tantiq, kichik o‘g‘li Asmani hech tinch qo‘ymas, doimo uning jig‘iga tegar, shuning uchun qiz undan qo‘rqr edi.

O‘g‘lining hatti harakatidan xabar topgan onasi g‘azablanib, Asmani uzoqroqqa – Qohiraga o‘qishga yuborish kerakligini aytadi. Asma uchun bu ayni muddao edi. Biroq erkatoy o‘g‘il agar Asmaga uylanmasa, uydan qochib ketishini e’lon qiladi. O‘gay ona Asmaga xat yozib, uyga bir-ikki kunga kelib ketishini iltimos qiladi.

Asma uyga qaytib kelganida xayratdan yoqasini ushlaydi. Chunki ularning erka o‘g‘il bilan to‘ylari uchun barcha xozirliklar ko‘rilgan, xatto kelin ko‘ylak ham tayyor edi. Asma o‘sha yigitga turmushga chiqishga majbur bo‘ladi. Uning boshqa iloji yo‘q edi.

To‘ydan keyin yigit dastlab qizga yaxshi muomalada bo‘ldi. Biroq keyinchalik uni turtkilab, kaltaklab, juda xunuk muomila qilardi. Qiz uchun yashashning ma’nosи, hayotning mazmuni qolmadi. Borgan sari u betob bo‘lib, ranglari keta boshladi. U tirik murdaga aylangandi, uni tanib bo‘lmас edi.

Saida Zunnunovaning “Ikki o‘t orasida” hikoyasida asar qahramoni Vazira ota-onasining ajrashib ketganlari sababli ko‘p iztirob chekadi.

Esini tanigandan beri yuragining bir cheti jizillab turadi. Otasining yoniga borsa, onasi mayus termulib qoladi. Boradi-yu onasining nigohi ko‘zidan nari ketmaydi. Iziga qaytadi. Xuddi shunday mayus nigoh bilan dadasi termulib qoladi. U doim mana shunday yashadi. Ikki o‘t, ikki olovning orasida yashadi. Ular qachon, nega ajralishgan, Vazira bilmасди. Dadasi ham ro‘zg‘orlik bo‘lib ketgan, onasi ham. Arosatda Vazira qolgandi. Nega uni o‘ylashmagan?

To‘y taraddudi boshlagandan beri Vaziraning tinchi yo‘qolgan. Tunlari mijja qoqmaydi. O‘ziga o‘zi kim biladi? Bu taqdirda kim aybdor, otasimi yoki onasimi? Ularning yuraklarida ham bir armon, bir afsus bormikin? Balki ular ham Vazira kabi dardlarini ichlariga yutib yurishgandir! Saida Zunnunovaning “Ikki o‘t orasida” va Bint ash-Shotining “Yolg‘on qurban” asarlaridagi qahramonlari juda chiroyli tasvirlangan. Ularning husnu-tarovati ichki dunyosiga monand. Asma ham Vazira ham nufuzli va o‘qimishli oilada tarbiya ko‘rgan, sodda, ota-onha haqida qayg‘uradigan, ularning g‘amini yeydigan qizlardandir. Asma otasini shunchalar yaxshi ko‘radiki, otasi o‘limidan so‘ng na unga, na onasiga biron narsa tashlab ketmasa ham, buning ustiga xotinining o‘z akasiga turmushga chiqishini vasiyat qilib ketgan bo‘lsa ham uni yomon ko‘rmaydi. Bunga uning tarbiyasi, otaga bo‘lgan mehr-muhabbati yo‘l qo‘ymaydi. Otasi barchasini ularning qiynalmasliklari uchun qilgan, deb o‘laydi.

Bir necha yillardan so‘ng qiz voyaga yetgach, uning onasi ham bu dunyodan ko‘z yumadi. Asmaning ota-onha haqidagi o‘y hayollari, yuksak ehtiromi diqqatga sazovordir.

Vazira ham, garchi ota-onasidan qilgan ishlari uchun xafa bo‘lsa ham, ularni yaxshi ko‘radi, hurmat qiladi. Tunu-kun o‘zining emas, ularning taqdirini o‘laydi. Afsuski, u o‘z ichki kechinmalarini, g‘am-alamlarini o‘kinchini onasiga ham sezdirmaslikka harakat qiladi. Taqdirlari shunaqa bo‘lgandan keyin nima qilsin? Balki ular ham Vazira kabi dardlarini ichlariga yutib yurishgandir, deb o‘laydi.

Asma ham onasiga tortgan. U kabi matonatli, bardoshli qiz o‘z hislarini boshqalarga oshkor qilmaydi. Onasining o‘limiga ancha vaqtgacha ko‘nika olmadi. Biroq u o‘zi yashab turgan sharoitga moslashishga urindi.

Vaziraning dardi boshqa. U Asma kabi ota-onasidan butunlay judo bo‘lgani yo‘q, biroq...

Mana yaqinda to‘yi bo‘ladi. O‘zining dadasi to‘yga kelolmaydi. Unga baxt tilab kuzatib qololmaydi. Bu yoqda o‘yin-kulgi bo‘ladi, u yoqda dadasi jimgina o‘tiradi. To‘y boshida turishi kerak bo‘lgan inson, hatto begona qatori ham to‘yga kelolmaydi. Uyga borganida, boshqalardan qo‘rqqandek ko‘chada xayirlasha turib sovg‘asini shosha-pisha qizining qo‘liga tutqazadi. Vazira sovg‘a uchun bormagan edi. U qachondan beri shuni o‘yaydi.

Asar davomida qizlarning o‘y-hayollar ko‘p uchraydi. Aynan shu hayollar orqali biz qahramonlarimizning sharoitini, orzu-umidlarini bilib olamiz. Ularning ikkalasi ham ota - onasi bilan birga bo‘lishni istaydi, ammo ularning maqsadi bir emas. Asma o‘zini kuchli deb biladi-yu, baribir jangda mag‘lub bo‘ladi. Asma bir necha bor aldandi, endi u uchun yashashning ma’nosи, hayotning mazmuni qolmagan edi. U borgan sari so‘lib borardi.

Vazira-chi? Uning maqsadi ota-onasi qilgan xatoni takrorlamaslik. U mustahkam oila qurishi, turmush o‘rtog‘ining mehrini qozonib, shirin – shakar farzandlarini voyaga yetkazish ilinjida. Uning o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan iffati, or-nomusi va tarbiyasi uni baxt sari yetaklaydi. Lekin baribir qalbida bir armon qoladi...

Misr adibasi Bint ash-Shoti o‘z hakoyalari orqali xalqiga murojaat etmoqchidek, ayol qadrini biroz bo‘lsa-da ko‘tarmoqchidek bo‘ladi va o‘z maqsadiga erishadi ham. Chunki uning asarlari mazmun-mohiyati jihatidan o‘quvchini fikr yuritishga, o‘ziga xulosalar chiqarishga undaydi.

Yozuvchining barcha asarlarida haqqoniylig, haqiqatgo‘ylik barq urib turadi. U ko‘p ijod qildi va shuhrat qozondi, shu bilan birga arab adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo‘shdi.

Saida Zunnunova hamma vaqt mehnatning go‘zalligi va mehnat qilgan insonlarning, xususan, ayollarning sabr-bardoshiga tasannolar aytdi. Uning barcha asarlari tuganmas mehnatda yutib chiqqan odamlarning, ayniqsa xotin-qizlarning qo‘shig‘i kabi yangradi. Uning asarlari o‘zbek xalqining ma’naviy mulkiga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. بنت الشاطى. صور من حياتهن. مصر 1952
2. بنت الشاطى. سر الشاطى. مصر 1953
3. S. Zunnunova. Tanlangan asarlar. Toshkent., 2001y.
4. S. Zunnunova. G'odak hidi. Toshkent, 1981y.
5. Said Axmad. Yo'qotganlarim va topganlarim: xotiralar, adabiy yo'llar. T., 1998y.
6. Xasanova X. Zunnunova Saida. Talantli adiba. T., 1968y
7. Коцарев Н.К. Писатели Египта XX века. Москва, 1976г.